

O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA OILADAGI AXLOQIY TARBIYANING O'RNI

**Abdurahmonova Sitora Umarqul qizi,
Ergashova Dilrabo Akram qizi,**

Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti talabalari

Ilmiy rahbar: **Bahodir Qandov,**

Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda biz jamiyatning asosiy tayanchi bo'lgan oilaning axloqiy masalalari bo'yicha fikr yuritganmiz. Oila muqaddas dargoh ekanligi, undagi tarbiya axloq asosida berilishi haqida fikr yuritilgan. Islom dinida axloqli oila qanday bo'lishi, Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda oiladagi axloq masalalarini o'rni qanday ekanligini yoritib o'tganmiz.

Kalit so'zlar: oila, axloq, jamiyat, Hadisi Sharif, Konstitutsiya, tarbiya, nikoh, axloqiy tarbiya, Yosh avlod, huquq, fuqaro, fuqarolik jammiyati.

РОЛЬ НРАВСТВЕННОГО СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье мы обсуждаем нравственные вопросы семьи, которая является опорой общества. Считалось, что семья – это святое место и что ее воспитание должно быть основано на нравственности. Что такая нравственная семья в исламе и какова роль нравственных вопросов в семье в Коране и хадисах.

Ключевые слова: семья, этика, общество, хадис Шариф, Конституция, воспитание, брак, нравственное воспитание, Молодое поколение, право, гражданин, гражданское общество.

Tarix uchun 31 yillik davr juda qisqa fursat hisoblanadi. Biroq 31 yil (1991 – 2022 yillar) mobaynida jahon siyosiy maydonidagi yosh va navqiron davlat – O'zbekiston Respublikasi asrlarga teng yo'lni bosib o'tdi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov boshchiligidida O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolar jamiyatini qurish hamda mamlakat xalq xo'jaligini modernizatsiyalashga oid katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi faqat Markaziy Osiyo yoxud Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida emas, balki Er yuzida ham o'zining muayyan ovozi va so'ziga ega bo'lgan suveren davlatga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov 25 yil davomida mustaqil O'zbekistonni boshqarib, ochiq fuqarolik jamiyatni va bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishning chuqur o'yangan strategiyasini ishlab chiqdi va uni amalga oshirgan buyuk davlat arbobi sifatida mamlakatimizda va xalqaro

maydonda yuksak obro‘-e’tibor qozondi. O‘zbekiston xalqi istiqlol yillarida erishilgan barcha olamshumul yutuqlar va natijalarini mamlakatimizning Birinchi Prezidenti nomi va faoliyati bilan uzviy bog‘liq deb biladi. Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan 2016 yil tariximizga “Sog‘lom ona va bola yili” deb kirishi davlatimizning fuqarolik jamiyatda oila o‘zining mazmun mohiyati bilan alohida o‘rin tutishini ko‘ramiz. Oila – kishilar hayotining eng muhim qismi, fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasidir. Bu muqaddas maskanda inson dunyoga keladi, aynan mana shu erda u ma’naviy va axloqiy jihatdan kamol topadi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, “oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor”[5, 400]. Kundalik turmushimizda shuni ko‘rsak bo‘ladiki, ya’ni oila inson zotini davom ettirishdek bo‘lgan ulug‘vor vazifani bajarish bilan odamning mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi, muhim tarbiyachi, bolalikning dastlabki yillarida inson shaxsi shu joyda vujudga keladi.

Oila – bu jamiyatning tayanch ustuni. Oila institutini yanada mustahkamlash, bu borada olib borayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish alohida ahamiyat kasb etadi. Oila mustahkamligi – bu jamiyat mustahkamligi va demak, davlat barqarorligining asosidir. Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, “oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”[6, 58]. Inson oilada dunyoga kelib voyaga etadi, jamiyatda o‘z o‘rniga, mavqeiga ega bo‘ladi. Oiladagi muhim sharoit, ota-onaning fazandiga bo‘lgan munosabatidan, uni oqil, dono qilib tabiyalashdan, hech charchamay uni kamoli uchun bor kuchini ayamasdan harakat qilib, bu har ota-onaning burchi, asosiy vazifasidir. Hozirgi fuqarolik jamiyatining huquqiy davlatni shakllantirishda qatnashishi bilan birga shu jamiyatda yashaydi va undan babra oladi. Yosh avlodni har tomonlama ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy, huquqiy jihatdan barkamol ekanlagi davlatimizning gullab-yashnashi uchun qurilayotgan fuqarolik jamiyatining tabiatiga mos keladigan, uning xususiyatlarini o‘zida mukammal aks ettirayotgan oila barpo etish uchun zarurdir. Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida “Insonning eng sof va pok tuyg‘ularini, ilk hayotiy tushuncha va tasavurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Boshlang‘ich xarakterini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar, ahillik va ezgulik, oliyjanoblik va mexr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarni poydevori oila sharoitida qaror topadi”[6, 28-29], - deb ta’kidlaydi.

O‘zbekiston huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish yo‘lidan izhil rivojlanib bormoqda. Bu buyuk maqsadga erishish yo‘lida jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda oila institutining rivojlanishi va jamiyatimizda oilaning kamol topishi yo‘lida asos bo‘ladigan mustahkam qonunchilik tizimi yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida quyidagi g‘oyat muhim yuridik norma belgilab qo‘yilgan: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”[1].

Oila vatan ichidagi kichik vatan hisoblanadi. Nikoh - bu o‘zaro hurmat, muhabbat, ishonch asosiga qurilgan erkak va ayolning o‘zaro ittifoqidir, shuningdek oilaning asosi ham nikohdir. Oila bu yaqin insonlarni birgalikda yashaydigan, mehr-muhabbatini ularashdigan muqaddas dargohdir. Oilada ota-ona bilan farzandlar o‘rtasidagi, er-xotin o‘rtasidagi, qaynona-kelin o‘rtasidagi va qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni asosini axloq tashkil etadi.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, u doimo jamit va davlatni muhofazasida bo‘lish huquqiga egadir. Shunga assoslanib biz oila jamiyatni birlamchi bo‘g‘ini ekanligini asosida shubhasiz aytishimiz mumkinki, u fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, barqaror va tinch tuzilmasidir. Ya’ni bu makonda inson dunyoga kelib, ma’nana va axloqan tarbiyalanadi.

Axloq – arabcha so‘z bo‘lib, kishining tabiat, muomala, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab, xatti-harakat odobi degan ma’nolarni anglatadi[2]. Axloq o‘z ichiga xulq va odobni qamrab oladi. Axloq ijtimoiy hayotdagi insonlarning yurush turishida, muomila madaniyatida, tabiatga bo‘lgan munosabatida o‘z aksini topadi. Axloq yozilmagan qonundir, shuning uchun bu avvalo oilada bolalikdanoq farzandlar ongiga singdiriladi. Oilada axloq masalalari o‘zaro munosabatlarda farzandlarga berilayotgan tarbiyada o‘z aksini topadi. Avvalo, axloqqa ta’rif beradigan bo‘lsak “Axloq-jamiyat, zamon ba’zan insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa”[3]. Axloq tarbiya bilan uzviy bog‘liq hisoblanib, bular bir-birini taqazo etadi. Tarbiyaning assosi axloqdir. “Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga etkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo‘lsin”[3]. Ota-onaga hurmat ko‘rsatish, ularni e’zozlash ham axloqning bir ko‘rinishini namoyon etadi. Oilada asosan farzandlar onadan tarbiya oladilar. Onadagi aksariyat axloqiy fazilatlar farzandlarga ham o‘tadilar. Bu esa Sharq xotinqizlariga xos yuksak axloqiy fazilatlarda ko‘rinadi. Xalqimiz o‘zining ko‘p ming yillik tarixiy jarayonida oila xususida milliy-mafkuraviy tarbiyani shakllantirgan. Oilada otaning shaxsiy ibrati, onaning mehri orqali turmush zahmatlarini engishda, farzandlarini tarbiyalni bo‘lishida mustahkam tayanch bo‘la olishgan.

Inson o‘zida bor bo‘lgan narsalarningina boshqalarga ularsha oladi. Shunday ekan har bir oilaning assosini axloqiy tarbiya tashkil etib, oilaning har bir a’zosi shu axloqiy tarbiya bilan voyaga etqazilsagina, ularni ta’limida ham barchasi o‘z me’yorida bo‘ladi. Bunday shaxslar o‘z oilasiga, vataniga munosib, tom ma’noda inson degan sharafga loyiq bo‘ladi. Biz hozirdan o‘z farzandlarimizni axloqiy tarbiyasini mukammal darajada bera olsak, ertaga uni ta’lim olishida, hayotda o‘z o‘rnini topishiga zamin hozirlagan bo‘lamiz. Jadid ma’rifatparvarlaridan Abdurauf Fitrat tarbiyani uchga, ya’ni badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiyaga bo‘ladi. Bularni ichida eng muhim etib, axloqiy tarbiyani oladi, chunki axloq aql va jismoniy kuchni nazoratchisi, yaxshilik va yomonlikni ajratdigan, insonni o‘z nomiga munosib bo‘lishiga undovchi kuch hisoblanadi.

Oila – muqaddas dargohdir. Unda kelajak avlod dunyoga keladi, tarbiya topadi, yaqin insonlar umrguzaronlik qiladi. Oilada axloq masalalariga e’tibor berishlik, barcha munosabatlarni axloqiy tarbiya asosida yaratish baxtli, totuv yashashga asos bo‘ladi. Hozirgi axborot texnologiyalar asrida o‘z ananalarimiz, qadriyatlarimiz asosida rivojlanish, o‘z milliyligimizni yo‘qotmagan holda yashash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Oila deb atalmish qo‘rg‘onda avlodlar kamol topadi. Shuning uchun bu qurg‘onning mustahkam va barqaror bo‘lishiga erishish nafaqat ma’lum bir mamlakat doirasida, balki dunyo miqyosida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda masalaga e’tibor beriladigan bo‘lsa, dunyodagi yirik va nufuzli xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Bosh Assambleyasi 1994 yildan e’tiboran har yili 15 may kunini *Xalqaro oila kuni* sifatida nishonlashga qaror qilinganligini o‘zi katta ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda har yili minglab nikohlar qayd qilinib, shu asosida oilalar vujudga kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi siyosiy rahbari Islom Karimov “Eng muhim vazifa – xalqchil adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyatni poydevori, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma’naviy sog‘lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi”[7, 14-15] - deb ta’kidlaydi.

Shunday qilib, mamlakatimizda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini, fuqarolik totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda. “Davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, hech shubhasiz, bugungi kunda g‘oyat muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi”[8, 26].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2019.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, – Toshkent: 2010. – B.8.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. –B.120.
4. Kalkanov Eshmatboy. (2021) Patriotism and Socio-Spiritual Factors that Patriotism. International Journal of Development and Public Policy. –pp. 177-179.
5. Karimov I. Oila farovonligi – millat farovonligi // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida: T. 6. – T.: “O'zbekiston”, 1998. B.400.
6. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2015.
7. Karimov I. Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: “O'zbekiston”, 1996. –B. 14-15.
8. Karimov D. (2022) O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o'rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
9. Umid Adambayev. (2021) Milliy o'zlikni anglash millat taraqiyotining poydevori // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии. Conference Zone. – pp. 77-80.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan. International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
13. Адамбаев Умидбек. (2022) Ишонч-эътиқодни шакллантиришда урғ-одат ва анъаналарнинг таъсири / Scientific progress. – pp. 348-351.
14. Kandov B. (2022) Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan. Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.
15. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 68-73.
16. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев. (2022) Экологик маданият ва уни шакллантириш // Academic research in educational sciences. – pp. 125-134.
17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati. Academic research in educational sciences. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) Ишонч-эътиқодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни // Academic research in educational sciences. – p. 898.
19. Баҳодир Мирзаевич Қандов. (2021) The importance of forming an active civic position among young people. Актуальные научные исследования в современном мире. – С. 102-106.
20. Қандов Б.М. (2021). Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization // Актуальные научные исследования в современном мире. – pp. 65-70.

21. Togayev Shavkat Hurramovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) [The role of education in the development of environmental consciousness of a person](#). Theoretical & Applied Science, 1129-1133.
22. Kandov B.M. (2021). [Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment](#) // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.
23. Adambayev U.X. (2022) Zamonaviy dunyo: ijtimoiy tarmoqlar inson resurslarini boshqaradi. Scientific Progress, 499-501.
24. Bakhodir Qandov. (2020) [Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty](#). – P. 488-495.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) [Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic](#) // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – pp. 496-501.
26. Ikramov R. Kandov B.M. (2021). [The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization](#) // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. [Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan](#) // International Journal of Development and Public Policy Vol. 2 No. 3 (2022). – pp. 84-91.
28. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) [Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan](#). EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – pp.507-510.
29. Adambaev U. (2021). [Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb](#) // Экономика и социум. – С.18-21.
30. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.